



XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Korxona va tashkilotlar soni (2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



*mas'uliyati cheklangan jamiyat,
ming birlik*




*xususiy korxona,
ming birlik*




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 iyul holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(yanvar-iyun oylarida, ming birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**
(2022 yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2022 yilning yanvar-iyun oylarida 2509 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1982 ta, xususiy korxonalar 169 ta, oilaviy korxonalar 256 ta va boshqalar 102 tani tashkil etdi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan
korxona va tashkilotlar tarkibi**
(1 iyul holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 4902 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 102,6% ga (jami sanoatdagi ulushi 94,4%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 111,6% ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 85,7% ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4%) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 126,8% ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1%) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2929 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 foizga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 102,6 foizga (jami qurilishdagi ulushi 60,2 foiz), fuqarolik ob'ektlarini qurish 136,5 foizga (jami qurilishdagi ulushi 11,9 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 92,8 foizga (jami qurilishdagi ulushi 27,9 foiz) o'sishidir.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 9202 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,5 foizga oshdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 112,6 foizga (jami savdodagi ulushi 65,0 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 108,8 foizga (jami savdodagi ulushi 25,0 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 121,9 oizga (jami savdodagi ulushi 10,0 foiz) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona
va tashkilotlar soni**
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2447 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 105,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 108,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,6 %) o'sishidir.


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 330 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 100,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,6 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 101,6 foizga ko'paygan, (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 18,8 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 87,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,2 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 80,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,2 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 137,9 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 39,7 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 87,1 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 22,5 foiz) o'sgan.

Oilaviy korxonalar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 3714 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 323 taga yoki 109,5% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3347 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 227 taga yoki 107,5% ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 256 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 276 taga yoki 51,9% ga kamayganini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra 22745 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2528 taga yoki 112,5 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21296 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2078 ga yoki 110,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1982 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 289 taga yoki 12,7 foizga kamaygan.




**Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni**
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 379 tani tashkil etib, ulardan 375 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 53 taga yoki 116,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- iyun oylarida viloyatimizda 28 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Jami	113	223	291	322	375
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5	21	20	30	33
sanoat	65	101	124	129	136
qurilish	5	20	28	34	33
savdo	18	39	61	71	102
tashish va saqlash	-	2	6	5	8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9	18	23	23	25
axborot va aloqa	-	1	1	1	5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	6	7	8
boshqa turlar	9	17	22	22	25

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Buxoro viloyati	375	211	164
Buxoro shahri	200	97	103
Kogon shahri	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	8	2	6
Buxoro	26	20	6
Vobkent	5	4	1
G'ijduvon	11	7	4
Kogon	29	20	9
Qorako'l	8	6	2
Qorovulbozor	11	5	6
Peshko'	21	9	12
Romitan	15	10	5
Jondor	14	10	4
Shofirkon	10	7	3

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarnig qo'shma
korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 200 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 53,3%), Kogon tumani 29 ta (7,7 %), Peshko' tumani 21 tani (5,6 %), Kogon shahar 17 ta (4,5 %), Buxoro tumani 26 ta (6,9 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (3,7%) tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni
(2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(2022 yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)



2022- yilning yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (14,8 %), G'ijduvon (19,9 %), Buxoro (8,2 %), Romitan (3,1 %), Peshko' (6,3 %), Kogon (5,9 %), Jondor (3,1 %), Vobkent (8,2 %), Shofirkon (7,4 %), Qorako'l (9,0 %), Olot (5,5 %), Qorovulbozor (1,2 %) tumanlari va Kogon shahar (7,4 %), ulushiga tegishli.